

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MAQOL VA TOPISHMOQLARNI O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Jizzax Davlat pedagogika universiteti 1 kurs talabasi

Suyunova Marjona Akbar qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim tizimidagi islohotlar, kompetensiya va boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni o'z o'rnida qo'llanilishi va ta'limiy o'yinlardan va maqol va topishmoqlardan samarali foydalanish haqida yoritildi.

Abstract: This article highlighted the reforms in the educational system, the competence and the use of speech competences in the native language classes of the elementary school, and the effective use of educational games, proverbs and riddles.

Аннотация: В данной статье освещены реформы в системе образования, компетенции и использования речевых компетенций на уроках родного языка в начальной школе и эффективное использование развивающих игр, пословиц и загадок.

Kalit so'zlar: kompetensiya, integratsiyalashuv, og'zaki va yozma nutq, "Domino" o'yini, maqol, topishmoq, "Juftingni top".

Key words: competence, integration, oral and written speech, "Domino" game, proverb, riddle, "Find your match".

Ключевые слова: компетентность, интеграция, устная и письменная речь, игра «домино» пословица, загадка, «Найди свою пару».

Jahon miqyosida integratsiyalashuv jarayoni jadallayotgan ayni vaqtda ona tilini asrash va o'qitish masalalari muhim vazifaga aylanib bormoqda. Barcha tillarda o'qitish tamoyillari zamonaviy tendensiyalarni o'z amaliyotida sinab bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning ilg'or o'qitish uslublari taraqqiyot darajasini belgilab beruvchi muhim omildir, agar barcha sohada ilmiy renessansni amalga oshirmoqchi bo'lgusak, buni ona tili ta'limini rivojlantirishdan boshlash kerak. Mamlakatimizda ham ona tilini o'qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi. Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi ona tili o'quv predmetiga doir o'quv materiallar mazmunini takomillashtirish, o'quvchilarda adabiy talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, imloviy savodxonlikni oshirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish - nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga tizimli yondashuv bugungi kunda davlat siyosati darjasidagi dolzarb masalardan biri bo'lib kelgan.¹ Ona tilini o'qitish orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash va mantiqiy o'ylashni ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz",² deb ta'kidlanishi ona tili ta'limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi. Dars jarayonini tashkil qilish oson va qiziqroq bo'lishi uchun samarali bo'lgan ko'rgazmali qurollardan foydalanish yordamida keyinchalik ham esda qolarli bo'lishi uchun ilmiy va nazariy tomondan ham aniqlangan. Nutq madaniyati – til normalarini egallamoq ya'ni talaffuz urg'u, so'z ishlatish, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek, tolning tasviriy vositalardan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali o'qish va so'zlay olish madaniyatini egallash demakdir. Masalan, "Aqliy hujum", "Suhbat", "Munozara ko'rinishidagi dars", "Sayohat bilan bog'liq dars", "Yaxshi va yomon", "Juftingni top", "Didaktik o'yinli dars", "Uch so'z", "So'z tarkibi adashdi", kabi ta'limiy o'yinlar va turli xil o'zbek xalq maqollaridan va topishmoqlaridan foydalansak, o'quvchilarning bilimni kuchli, ongini va ularning tafakkurini rivojlantiradi, fikrini to'g'ri ifodalaydi, og'zaki

¹ K.Rajapova. Nutqiy ko'nikmalarni tizimli rivojlantirish metodikasi. : "Iimpaz" nashriyoti, 2021-yil, 4-bet.

² Mirziyoyev Sh, Erkin va faravon demokratik o'zbekistomn davlatini birgalikda barpo etamiz. – T,:O'zbekiston. 2016 ,- 14-6-bet.

va yozma nutq malakasini oshiradi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish bolalarni badiiy estetik ta'sirida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi, xalq og'zaki ijodi namunalaridan maqol topishmoq, tez aytishlar hamda bolalarda topqirlik, tezkorlik, mulohazalik, sifatlarini qaror toptirishga va shu orqali nutqini o'stirishga yordam beradi. Xalq og'zaki ijodi xalqning ma'naviy boyligining muhim tarmog'i bo'lib, bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashdagi roli beqiyosdir. Chunki, xalq og'zaki ijodida xalqning ozod, baxtiyor hayot uchun kurashi va ezgu niyatlari, orzu-umidlari o'z ifodasini topadi. Biz o'z malakaviy ishimizda xalq og'zaki ijodi namunalaridan boshlang'ich sinf 3-4 sinf ona tili darsligida keltirilgan maqol va topishmoqlar ustida fikr yuritmoqchimiz.

Maqollarni o'quvchilarga tushuntirishda quyidagi amaliy ishlarni bajarish talab qilinadi:

- O'qib o'tilgan asar mazmuniga aloqador maqollar qiyoslanadi: "Suv keltirgan xor-zor, ko'za sindirgan aziz", "Mehnatning tagi rohat";

- Maqollarni muayyan asar mavzular bo'yicha guruhlash : "Vatan – vatanparvarlik", "Do'stlik va dushmanlik", "To'g'rilik", "Odob va axloq" "Til; va nutq".

- Rasmlar va albomlarni tuzib, uning mazmuniga mos maqol yozish.

Maqollar o'quvchilarning nutqini oshiradi, ongini rivojlantiradi, so'z boyligini rivojlantiradi. Maqollar xalqning u yoki bu masala yuzasidan chiqargan hukmini bolalar ongiga yetkazishda o'qituvchiga yordam beruvchi vositalardir. Maqollar so'z boyligini oshirsa tez aytish va topishmoqlar bolalarning xotirasini yaxshilaydi va eslab qolish qobiliyatini yaxshilaydi. Nutq madaniyati deb yuritilayotgan hodisa bir qator murakkab, ammo mavjud til faktlari, ilmiy-amaliy tasavvurlar, aniq nutqiy jarayon ko'rinishlari va talablari bilan aloqadordir. Mana shunga ko'ra nutq madaniyatini:

1. Tildagi mavjud til hodisasi nomi;
2. Nutq madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning, ya'ni aniq nutqiy ko'rinishning nomi;

3. Madaniy nutq va u haqida kishilar ongida mavjud bo'lgan aniq normatik tasavvurlarning nomi;
4. Tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot ob'yekti bo'lgan nutq madaniyati va u haqida mavjud ilmiy tasavvurlarning, muammoning nomi;
5. Nutq madaniyati muammosini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik sohasining nomi tarzida talqin qilish mumkin.

Nutq madaniyati amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan bo'lib, chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchilik va xatolar, nutqiy asarlarning ko'rinishlari, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

Nutq madaniyati asoslari ham fan sifatida o'z tekshirish ob'yekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti til qurilishi, adabiy til normativlari va nutqning kommunikativ fazilatlaridir. Nutq madaniyati asoslari fani adabiy til normalarini, uning tarixiylikini, taraqqiy etib borishi, undagi ba'zi elementlarning eskirishi, yangilarining paydo bo'lishini kuzatib qayd etib boradi. Odam nutq yordamida o'zining fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab oladi. Nutq ichki va tashqi ko'rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o'z ichida gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o'z-o'ziga qaratilgan nutq sanaladi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo'lgan faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega. Og'zaki nutq odatdagi tovushli so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab Grammatik qurilmalardan foydalanilmaydi. Bu nutqda fikrni ixcham ifodali maqsadida to'liqsiz gaplar keng qo'llaniladi. Nutqning bu turi bir va bir necha kishi tomonidan amalgam oshiriladi. (monologik, dialogik nutq). Yozma nutq esa harf va so'zlarning ma'lum qonuniyatlari asosida o'zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar, abzatslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon etish orqali

ro'yobga chiqadi. Jonli nutqning ikki qanoti bir-biridan kuch oladi. Bu nutq madaniyatining ikkita ko'rinishidir. Muomala jarayoni ularni puxta bilish, o'zlashtirish va amalda muvaffaqiyatli qo'llashni taqozo etadi. Bu og'zaki va yozma nutq madaniyatini egallashdir. Kimdir og'zaki nutqqa mohir bo'lsa, kimdir yozma nutqqa. Aslida, har ikkalasining ham ustasi bo'lish kerak. Xalq iborasi bilan aytganda, «gapga do'ppi kiygizadigan» so'z ustalarining nutqi kishini o'ziga rom etmasdan qo'ymaydi. Ustozlardan biri shunday degan edi: «*Men minbarga chiqsam, o'zimni miltiq o'qtagan ovchi oldida dag'-dag' titrayotgan quyonga o'xshataman, yozish uchun stolga yaqinlashsam, o'zimni bamisoli arslondek tasavvur qilaman*».

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish tizimli yondashish, xususan, matn ustida ishlash orqali o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini bir mashg'ulotning o'zida xosil qilish metodikasi ona tili ta'limini takomillashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda oldimizda turgan maqsadizmiga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samarasi avvalambor zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muommosi bilan bog'liqdir.³

Foydalangan adabiyotlar:

1. Elmurodov N. O'qituvchining nutq madaniyati. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2003.
2. Karimov S.A., Mahmatmurodov Sh.M., Karimova O.N. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – T.: “O'zbekiston”, 2003
3. [http: www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).
4. [http: www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. K.Rajapova. Nutqiy ko'nikmalarni tizimli rivojlantirish metodikasi. : “Iimpaz” nashriyoti, 2021-yil, 4-bet.110 – bet.
6. Mirziyoyev Sh, Erkin va faravon demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.:O'zbekiston. 2016 ,- 14-6-bet

³ K.Rajapova. Nutqiy ko'nikmalarni tizimli rivojlantirish metodikasi. : “Iimpaz” nashriyoti, 2021-yil, 110- bet.